
TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI BILDIRISHI

Farg'ona viloyati Rishton tuman tibbiyot birlashmasi ma'muriyati ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan «Tumandagi Qayrag'och MFY da bir guruh fuqarolar va shifokorlar qishloqdagi QVP qurilishidan norozi» nomli maqola yuzasidan quyidagilarni ma'lum qiladi. Qayrag'och MFY hududida joylashgan OShP binosi zamon talablariga javob bermaganligi sababli «KAIZEN ART» MChJ tomonidan 1 mlrd. 700 mln. so'mlik qurilish va rekonstruktsiya ishlari rejalashtirilib, amalga oshirilgan. Loyihaga OShP binosini elektr tarmoqlari tizimi kiritilmaganligi sababli bino foydalanishga tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i tomonidan qabul qilinmagan. Bu masala yuzasidan tuman xokimligi va tuman elektr tarmoqlari rahbariyati xabardor. Tuman hokimligi tomonidan OShPgacha bo'lgan masofaga elektr tarmog'i tortish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda OShP xodimlariga yetarli shart-sharoit yaratish hamda ular tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifat va samaradorligini oshirish maqsadida tibbiyot xodimlarini yangi binoga majbur bo'lgan holda ko'chirish rejalashtirilgan. Ko'chish bo'yicha Qayrag'och OShP mudiri yoki xodimlariga hech qanday bosim bo'lmagan, tibbiyot birlashmasi rahbariyatiga binoni yaroqsiz holatda qabul qilish bo'yicha hech qanday manfaatdorlik yo'qligini hamda binoni loyixa-smetasini tayyorlashda, quruvchi ushbu binoni qabul qilishda o'tkazilgan tenderda va qurilish ketayotgan vaqtda aralashish vakolati yo'qligini ma'lum qilamiz.

Rishton tuman tibbiyot birlashmasi ma'muriyati

2022-05-07 13:59:09